

**XX ASR BOSHLARI O`ZBEK ADABIYOTIDA IJROVIY LIRIKA
KO`RINISHLARI (HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY IJODI MISOLIDA)**

Ma'muraxon Madaminova Abdumannob qizi
ADPI, o'zbek tili va adabiyoti kafedrasasi o'qituvchisi,
ADU, o'zbek adabiyoti stajyor-tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziy asarlari misolida ijroviy lirikaning namunalari ko`rildi. XX asr o`zbek adabiyoti ijtimoiy hayotida o`zgarishlar natijasida lirikaning subyektiv birligida yuz bergan o`zgarishlar borasida mulohaza qilindi

Kalit so`zlar: lirik asar spetsifikatsiyasi, ijtimoiy hayot, ijroviy lirika, lirika subyekt, Hamza Hakimzoda Niyoziy she`riyat, umumiy mavzu, individuallik .

Insoniyat tafakkuri rivoji, ijtimoiy munosabatlardagi evalutsiya, jamiyatdagi o`zgarishlar har sohada oldinga yana bir qadam siljishga, yangiliklar kiritilishiga asos bo`lib xizmat qiladi. Shular qatori badiiy adabiyotning yetakchi turlaridan sanalgan lirikada ham yurtimiz og`ir sinovlarni boshdan kechirgan XX asr boshlarida shakl va mazmun jihatdan sezilarli o`zgarishlar sodir bo`lganini aytish joiz. Bu davrda Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy muhit ta`siri natijasida o`quvchiga qaratilgan badiiy nutq endi faqatgina an`anaviy shakldagi mumtoz lirik janrlarda berilishi o`zini oqlamas edi. Chunki odatdagi an`anaviy lirikada oshiqning ma`shuqa hajridagi iztirob-u qiynalishlari yoxud diniy-tasavvufiy, pand-nasihatlar barchamiz uchun avvaldanoq tanish sanalgan "umumiy lirik qahramon" tilidan bayon qilinardi. XX asrga kelib esa, lirik asardagi subyekt, ya`ni "men" faqatgina oshiq yoxud nasixatgo`y shoir emas, muallifdan tamoman boshqa shaxsga aylana boshladi. Bunga sabab sifatida esa, o`sha davr ijtimoiy hayotida shaxs mavqeyining ortib borishi, odamlardagi "men" ruhiyati rivojlanishi natijasida adabiyotimizda ham umumiy his-tuyg`ular emas, individlashgan hissiyotlar talqiniga oid asarlarga ehtiyoj sezila boshlaganini aytishimiz mumkin. Tahlilga tortilgan masala ham ayni shu haqda: XX boshlarida she`riyatdagi lirik subyektning o`zgarishi natijasida ijroviy lirika namunalari paydo bo`lganidir. O`rganish obyekti sifatida jadid adabiyotining yetakchilaridan biri sanalgan ma`rifatparvar shaxs – Hamza Hakimzoda Niyoziyning she`rlari olindi.

Avvalo, ijroviy lirika istilohiga e`tibor qaratsak, adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov bunday she`rlarda shoir o`zga shaxs ruhiyatiga kirib, go`yo uning ro`lini o`ynashini va asarda uning qalbini suratlantirishini, kechinma "men" tilidan berilsa ham, biroq bu "men" endi shoirdan tamoman "o`zga" shaxs ekanligini aytadi. Olimning fikrlariga ko`ra bu shakldagi she`rlarda shoir o`zga shaxsning his-tuyg`ularini uning o`z tilidan "men" shaklida ifoda etadi. Ya`ni ularda lirik subyekt ham, lirik kechinma obyekti ham shoirdan o`zga shaxsdir. [7, 194-195-b].

Hamza Hakimzoda Niyoziy faoliyati davomida o`z asarlari bilan xalqni savodli qilishga, ilm ziyosini tarqatishga, taraqqiy topishga undab kelgan, turli dramatik asarlar yozib, ijroda o`zi ham qahramon sifatida ishtirok etgan. She`rlarida esa ham an`anaviy tarzda avtopsixologik lirikadan, ham ijroviy lirikadan unumli

foydalangan. Masalan, Hamzaning “Tanlangan asarlar”iga kiritilgan “Erlar va qizlar aytishuvi”, “Maktublar”, “Sog’inib”, “Salom ayting”, “Biz ishchimiz”, “Duet”, “Saylov oldida”, “Bir eshon o’pkasi”, “Bir sharmanda tilidan”, “Ozod xotin-qizlar qo’shig’i”, “Tursunoy marsiyasi” kabi she’rlari ijroviy lirikaning adib ijodidagi dastlabki namunalaridan hisoblanadi. Jadid ma’rifatparvarlari xalqqa qaratilgan murojaatlarini dastlab sahna asarlari orqali ko’rsatib, jamiyatdagi turli muammo va illatlarni ijro etish orqali ko’ruvchiga yetkazishni ma’qul topgan. Chunki bu har ikki tomon uchun qulay. Tomoshabin voqea-hodisaning sabab-oqibatlarini ko’rishi natijasida o’zi xulosaga keladi. Lirikadagi an’anaviy turdagi mavzularida esa buning imkoni juda kam edi. Shuning natijasida davr ijodkorlari she’riyatida drammatik asar bilan o’zaro sintezlashuv jarayoni yuzaga keldi. Bu borada adabiyotshunos olim Ulug’bek Hamdam davr shart-sharoitlarini yuzaga keltirgan talabni qondirish uchun she’riyatning epos va drama bilan raqobatga kirishishi, ulardagi imkoniyat doirasidagi vazifalarni qisman bo’lsa ham zimmasiga olishi natijasida voqelikka yuz burgan she’riyat endi shoirninggina emas, o’zga odamning-da ko’ngliga nazar solmoqqa, dilidagini idrok qilmoqqa va ifodalarmoqqa jazm etganligi, shuning barobarida ijroviy lirika shaklidagi she’rlar paydo bo’la boshlaganini yozadi [5, 248-b]. Hamza qalamiga mansub “Peshonamiztor ekan”, “Sog’inib”, “Salom ayting” she’rlari bir-birini mazmunan to’ldiruvchi va davom ettiruvchi turkum she’rlar sirasiga kiradi. She’rda mardikorlikka olingan yigitning jismoniy va ruhiy azoblaridan keying holati bayon qilinadi. Dastlabki “Peshonamiz tor ekan” she’ri boshdan oxirigacha mingboshining mardikor yigitga qaratilgan nutqidan iborat:

Peshonamiz torekan, Yoquqliklar bor ekan

Endi bilsak bu ishga Jahl sababkor ekan.

Hoy pahlavon, tur qahramon,

Ay-da ishlaylik, tangri qo’shmish, nishlaylik!

Keyingi “Sog’inib” she’ri esa yuqoridagi yuzboshiga javoban mardikor yigitning dard-hasratli nutqidan iborat:

Qattiq tegma manga muncha, yuzboshim,

Oquzma ko’p g’amim uzra ko’z yoshim,

Yurak-bag’rim o’zihadsiz ezilgan,

Yurt-u vatan, ellarimni sog’inib.

“Salom ayting” deb nomlangan yana biri esa mana shu mardikorlik davrida vatanini sog’inib yurgan boshqa bir yigit o’z mahallasidan bo’lgan sherigini yurtiga kuzatayotganda unga qarata iltijo ila aytilgan nutqidan iborat:

Ag’o, sog’ borsangiz, avval Dadamlarga salom ayting.

Yugurib chiqqan ul mushfiq Onamlarga salom ayting.

Ko’zi qon hamshiram bilan Akamlarga salom ayting.

O’pib peshonasin men-chun, Ukamlarga salom ayting.

Qo’nu qo’shnim, kichik-katta Ag’omlarga salom ayting.

Ko’rib turganimizdek, mazkur she’rlar o’quvchi tasavvurida xuddi drammatik asar singari sahnada ijro etilayotgandek tasavvur uyg’otadi. Ijroviy lirikaga mansub

ushbu asarlar 1914-yilga mansubligini hisobga olsak, davr ijtimoiy tabiatidagi hodisalar she'r mavzusiga ko'chganiga guvoh bo'lamiz.

Muallifning "Saylov oldida" nomli she'rida eshon, boy dehqon, eski maktabdor, eski ellikboshi, savdogar, ijrokomning yomon raisi saylovda o'zlarining nomzodini qo'yib boshqalardan ovoz berishlarini so'rab qop-qop va'dalar beradi. Yakunda esa o'qigani uchun oddiy bir Jo'raboy ismli dehqon saylanadi. Mazkur asardagi voqelik ham subyektiv jihatdan muallifdan tashqarida o'zga shaxs nutqi orqali berilsa-da, ammo unda dramaga xos polifonik nutq ustuvor bo'lgani uchun uni ijroviy lirika namunasi demaganimiz ma'qul

Hamzaning yuqoridagi asarlarida voqelik alohida planda, alohida she'rda berilgan bo'lsa, uning "To'la asarlar to'plami"ning ikkinchi tomiga kiritilgan "Er va qizlar lapari", "Oy, singlim, oy, og'am", "Duet", "Yigit va qiz maktublari", "Yer istilohi", she'rlarida lirik asar qahramonlari bir she'rning o'zida dialog shaklidagi nutqi orqali shartli ravishda ijroviy lirikani yuzaga keltirgan:

- *Eski unum qayga ketdi?*
- *Boy eshonlar hissasiga.*
- *Bu unumlar qayg'a borur?*
- *Ishchi-dehqon foydasig'a...*

Shartli deyishimizning sababi shundaki, ulardagi lirik subyekt bitta "men"dan iborat emas, ikki kishini tashkil etishidadir. Ijroviy lirikaga xos ravishda muallif "men"ining ishtirok etmasligi odatdagi avtopsixologik lirikadan farqli jihatini ko'rsatadi.

- *Ma'rifatsiz kafan o'rab uyda yotmoq,*
- Iffat emas, diyonatdan, oy singlim, erur qochmoq*
- *Tarix kimi ayblar, qani chin musovot,*
- Sizlarg'a yuz bo'lg'och, bizga, oy og'am, bir maktab yo'q*
- *Bu hol ila qoldirsangiz keydisin-da,*
- Tarix sizni ayblamoqqa, oy singlim, hech ajab yo'q.*

She'riyatdagi bu shakl yuzaga kelishida, albatta, xalq og'zaki ijodining ta'siri katta. Chunki folklor namunalarida ko'pincha yuqoridagi ko'rinishda aytishuvlar va laparlar bisyor. Niyoziyning quyidagi she'ri ayni folklor ta'siridagi ijroviy lirikaga misol bo'la oladi:

- ERLAR: *O'qumaslar bizni qizlar ma'rifatsizlar*
O'z holidan xabarsiz bir oiladirlar
O'zlari maxbus, qo'llari bog'lu domi g'aflatda,
Dillari sezmas, ko'zlari ko'rmas johiladirlar.
- QIZLAR: *Nechuk dersiz bizni qizlar ma'rifatsizlar*
O'z holidin xabarsiz bir johiladirlar.
Bizni maxbus, qo'lni bog'lu, ko'zimizni ko'r qilgan
Din xoini mozorinda xok iladirlar.

She'r boshdan-oyoq mana shu shaklda davom etadi. Bu xuddi xalq og'zaki ijodidagi laparlarning shaklidir. Demak, ijroviy lirika taraqqiyotiga dastavval, folklor namunalari dastak bo'lib xizmat qilar ekan.

Adabiyotshunos olim Ulug'bek Hamdam aytganidek: "Mumtoz she'riyatimizga nisbatan lirik qahramon atamasini ishlatish ma'qulroq. Negaki, uning ma'naviy-ruhiy qiyofasida alohida shaxsning emas, ko'proq she'riyatda an'ana bo'lib kelgan shaxsning sifatlari aks etadi. Jadid she'riyatiga nisbatan ham lirik qahramon tushunchasi qo'llash qo'l keladi. Chunki bu she'riyatning lirik subyekti ham shaxsiylikdan ko'ra umumiylikni ko'proq namoyon etadi. Jadid shoirlari voqelikka shaxsiy nuqtai nazardan emas, balki mafkura orqali qaraganini ulardagi lirik qahramon – dunyo ahvolidan xabardor, yuz berayotgan ijtimoiy hodisalar mohiyatini anglagan, millat holiga befarq qaramasdan, uning taraqqiysi uchun qayg'uradigan umumiy ma'rifatparvar inson ekanligini aytish bilan izohlash mumkin. Hamza Hakimzoda o'z davrining siyosiy kuychisi bo'lgani barchamizga ma'lum. Bu uning ijod na'munalarida ham aks etgani tabiiy. Shoirning ijroviy lirikaga oid ko'plab na'munolari eshon-u otinlarning kulgili, sharmandali holatlarini yumoristik shaklda talqin etib yozilgan. Xususan, "Bir eshon hazratlari aytar ekan" deb nomlangan she'rda eshon tilidan quyidagicha so'zlar beriladi:

*To'yga o'zumcha bormam, Aytunlar deb yolvormam,
Nachuk bormam, deb bo'lur, Kelgach xat-u so'zlari.
Ko'p uyalturmang deyman, Qanday kelturmang deyman
Chopon birla osh tashub O'tsa shab-u ro'zlari
... Men emasman nafslik, O'zlari ko'p ixloslik [4,28-b].*

Yoxud "Azimxo'ja eshon binni Toshxo'ja eshonning og'iz bog'lashlari" nomli she'rda muallif eshonlarni o'zlarining nutqidan foydalanib ayovsiz fosh etadi:

*Ro'za tutdim non uchun, Elga bir pardoz uchun,
So'rsang ishning aslini, Mulla chevron oz uchun.
Amri ma'ruf, chillalar, Shubhasiz, bu hiylalar,
Barchasidan maqsadim Tanga, chevron tillalar.*

Ushbu mavzudagi yana bir "Bir eshon o'pkasi" deb nomlangan she'rda o'z mavqesini yo'qotgan eshonning o'tmishni sog'inib aytgan o'kinchlari keltirilgan:

*Endi esiz, o'tgan davron qaydadir, Xonaqo, ham to'da hayvon qaydadir.
Halva, zikr, degan shayton qaydadir, Ko'z boyloqchi makr-u yolg'on qaydadir.
... Shul bolshvoy chiqdi, meni xor etdi, Itdek qilib, parcha nonga zor etdi,
Haqqin tanib el ham mendan or etdi, Bilmam yo'l boshlovchim – shayton qaydadir.*

Odatda, ijroviy xarakterdagi she'rlarning sarlavhasi, sarlavha ostidagi izohi, epigraf yoki asosiy matnning o'zida kechinma egasiga ishora mavjud bo'ladi [6, 386-b.]. Hamza ijodidagi dastlabki ijroviy lirikaga oid she'rlarda ham ushbu fikr isbotini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Bir eshon hazratlari aytar ekan", "Bir eshon o'pkasi" (1926-yil), "Ozod xotin-qizlar qo'shig'i", "Azimxo'ja eshon binni oshxo'ja eshonning og'iz boylashlari" (1927-yil), "O'zbek xotini tilidan", "Bir qo'rqqoq mas'ul ishchining tilidan", "Bir sharmanda tilidan", "Xotin-qizlar ovozi" [1,2,3] kabi she'rlarining sarlavhasi bilan tanishiboq, asardagi lirik subyekt muallifdan tamoman boshqa shaxs ekanligini anglaymiz. Sarlavha ostidagi izohlarda ham ijroviy lirikaga ishora mavjud bo'ladi. "Salom ayting", "Sog'inib", "Peshonamiz tor

ekan” she’rlarining sarlavhasi bilan tanishgan o’quvchi asarning ijroviy lirikaga oid ekanini bilmasligi mumkin, ammo ulardagi kavs ichida berib ketilgan 1. Mardikorlardan biri uxlab yotarkan, yuzboshining ani uyg’otuvidir, 2. Tubandagi she’r haligi uyqudan turgan mardikor tilidan yuzboshiga javobdir, 3. Tubandagi she’r qahramonlaridan biri o’z mahallaligidan bir hamrohini vatanga uzatarkan, ota-ona, xesh-taborina so’zlayon duo payomini tanzimidir, shaklidagi izohlardan she’rdagi nuqt muallifdan boshqa shaxsga daxldor ekanligini bilib oladi.

Bulardan tashqari Hamza Hakimzoda qalamiga mansub “Tursunoy marsiyasi”, “Shokirjon vafotiga marsiya” nomli marsiyalar ham ijroviy lirika namunasi sifatida olinishga haqli. Sababi, ularda ifoda etilgan lirik voqelik Tursunoy hamda Shokirjonning o’z tilidan berilgan:

*Alvido, xurdu kalon, ey oshnolar, alvido,
Ota o’rnida amak birlan tag’olar alvido,
Mehribon, munis akam birlan ukolar alvido,
Hamshiram, kata-kichik mushfiq anolar, alvido
Ketdim emdi bosh olub, Mandan judolar, alvido.* (Shokirjon tilidan)

*Qurimasdan dorga yoygan ko’ylagim,
Yozmay shimarilgan nozik bilagim,
Vafosiz yor ekan qonimni to’kdi,
Shul erdimi, do’stlar, sevgan tilagim?!* (Tursunoy tilidan)

Adib ijodida bolalarga bag’ishlangan she’riyat namunalarida ham ijroviy lirika namunalarini ko’rishimiz mumkin. Xususan, “Mevalar mojarosi” deb nomlangan she’rida olcha, gilos, o’rik kabi mevalar “tilga kirib”, bir-birlariga murojaat qiladi:

*O’zum ming dardga davo, Qurutsa andan bajo,
Hatto mag’zimni olub, Solgay qandolat aro (O’rik)
G’o’rang qursin, kech bitar, Yegan kishi ich ketar,
Pishganing shalpaytirub, Qurug’ingdan bod etar
Bilarsan, otim gilos, Suyar mani om-u xos
Mani ko’rgan kishilar O’zga meva xohlamas. (gilos)
Ey gilos, lofurmag’il, Achchig’im kelturmag’il!
Tumshug’ingga bir solay, So’ngra yig’lab yurmag’il. (olucha)*

Fikrlarimiz yakunida aytmoqchimizki, XX asr o’zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri hisoblangan Hamza Hakimzoda Niyoziy o’z ijodi davomida ijroviy lirikaning turli shakllarini yaratgan hamda uning taraqqiyotiga sezilarli hissa qo’shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Asarlar. Ikki tomlik/ Birinchi tom. –Toshkent: O`zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960. -256 b.
2. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To`la asarlar to`plami. Besh tomlik/ Birinchi tom. –Toshkent: Fan, 1988. -380 b.
3. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To`la asarlar to`plami. Besh tomlik/ Ikkinchi tom. –Toshkent: Fan, 1988. -549 b.

4. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Tanlangan asarlar. Birinchi tom/ She`rlar. – Toshkent: O`zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958. -57 b.
5. Hamdam U. Yangi o`zbek she`riyati. –T.: Adib, 2012. -303 b.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Navoiy universiteti, 2018. -475 b.
7. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. –T.: Akademnashr, 2013. -334 b.
8. Madaminova M. Ismoil To`lak ijodida ijroviy lirika ko`rinishlari. Maqola.